


**Farg'ona viloyatining
TASHQI SAVDO AYLANMASI**

(2019 yil yanvar-iyul)

2019 yil yanvar-iyul oylari yakuniga ko'ra, viloyatimizda tashqi savdo aylanmasi 788,2 mln. AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,2%ga kamaygan. Shu jumladan, eksport hajmi 345,3 mln. AQSh dollarga (14,4 %ga o'sgan) va import hajmi 442,9 mln. AQSh dollariga (o'sish sur'ati 83,7 % ga) yetdi. Tashqi savdo saldosini minus 97,6 mln. AQSh dollarini tashkil qildi.

***Farg'ona viloyati tashqi savdo aylanmasi**
(mln. AQSh dollari)




* tezkor ma'lumot

So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilinishi, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida

sezilarli o'zgarishga erishildi. Jumladan, xom-ashyo eksportidan, qo'shilgan qiymati yuqori hamda sarmoya talab tovarlar eksportiga yo'naltirilgan tashqi savdo amalga oshirilmoqda.

2018-2019 yillarda tovar va xizmatlarning eksport-import ko'rsatkichlari dinamikasi
(mln. AQSh dollari)



2019 yil yanvar-iyul oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar ketma-ketligi joriy yilning iyul oyida ham o'tgan yilning mos davriga nisbatan deyarli o'zgarishsiz qolmoqda.

Viloyat tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar

(mln. AQSh dollari)

Davlat nomi	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasidagi ulushi, %
Xitoy	199,4	63,7	135,6	25,3
Rossiya	160,2	78,4	81,8	20,3
Qozog'iston	103,1	33,8	69,3	13,1
Qirg'iziston	93,4	69,9	23,5	11,8

(mln. AQSh dollari)

Davlat nomi	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasidagi ulushi, %
Turkiya	59,8	35,2	24,6	7,6
Tojikiston	22,7	8,4	14,4	2,9
Germaniya	17,9	0,6	17,3	2,3
Koreya Respublikasi	17,7	3,7	13,9	2,2
Polsha	15,9	11,0	4,8	2,0
Latviya	14,6	0,6	14,0	1,8
Ukraina	8,9	5,8	3,1	1,1
Misr	8,0	7,6	0,4	1,0
Litva	6,9	0,2	6,7	0,9
Yaponiya	6,8	0,4	6,5	0,9
Bangladesh	6,3	6,3	0,0	0,8
Afg'oniston	4,2	4,2	0,0	0,5
Vetnam	4,0	3,9	0,1	0,5
Italiya	3,2	0,5	2,8	0,4
Turkmaniston	3,2	0,7	2,5	0,4
Eron	2,9	0,6	2,3	0,4
Belarusiya	2,8	1,1	1,7	0,4
Hindiston	2,3	0,0	2,3	0,3

Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2019 yil yanvar-iyul oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 50,1% ni tashkil etdi hamda tashqi savdo aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 82,1% ni tashkil etdi. Boshqa xorijiy davlatlarning tashqi savdo aylanmasi 2019 yilning yanvar-iyuloylarida o'tgan yil

shu davrga nisbatan 112,3% oshgan bo'lsa, viloyatning jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi esa 49,9%ga yetdi.




EKSPORT.

2019 yil yanvar yanvar-iyul oylarida eksport hajmi 345,3 mln. AQSh dollarga (2018 yilning shu davriga nisbatan 114,4% ga o'sgan) teng bo'ldi. Eksport tarkibida tovarlar 98,4 % ulushga ega, bular asosan oziq-ovqat mahsulotlari (44,1%), energiya manbaalari va neft mahsulotlari (3,8%), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (0,4 %), qora va rangli metallar (0,03%), mashina va uskynalar (0,1%),shuningdek xizmatlar eksporti (1,6 %) va boshqalar (50,0%) guruhlariga hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Tovar va xizmatlar eksporti tarkibi (mln.AQSh dollari)

2018 yil (yanvar-iyul)


2019 yil (yanvar-iyul)



Eksport tarkibi

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %
Eksport	345,3	114,4	100,0	198,5	121,9	100,0	146,8	105,6	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari	152,3	148,5	44,1	134,2	137,7	67,6	18,1	3,6p	12,3
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	1,3	67,2	0,4	1,26	72,7	0,6	0,04	22,0	0,03
Energiya manbaalari va neft mahsulotlari	13,2	99,5	3,8	7,6	86,6	3,8	5,6	124,1	3,9
Qora va rangli metallar	0,05	2,4p	0,01	0,05	2,4p	0,01	0,00	0	0,0
Mashina va asbob - uskunalar	0,4	80,6	0,1	0,3	65,9	0,2	0,1	5,1p	0,1
Xizmatlar	5,4	142,0	1,6	3,6	125,9	1,8	1,8	190,0	1,2
Boshqalar	172,6	96,5	50,0	51,5	99,9	25,9	121,1	95,2	82,5

Tovar va xizmatlar eksportining o'sish sur'atlari
(o'tgan yilga nisbatan,%)




Shuningdek, tovar eksporti o'sish sur'atlarining tahliliga asosan, 2019 yilning yanvar-iyul oylarida eksport qilingan tovar va xizmatlar o'tgan yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 114,0% ga oshgan.


Xizmatlar eksporti hajmi 5,4 mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 1,6% tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,4 martaga ko'payganligi kuzatildi.

Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari, turizm xizmatlari, sog'liqni saqlash bo'yicha xizmatlar hamda moliyaviy xizmatlar hissasiga to'g'ri keladi.

2018-2019 yanvar-iyul oylarida tovarlar va xizmatlar eksporti
(mln. AQSh dollari)



Viloyat eksportida asosiy yirik hamkor davlatlarning ulushi
(yanvar- iyul)



Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Qirg'iziston va Xitoy Xalq Respublikasi hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu esa umumiy eksport hajmining 61,4% ini tashkil qiladi. Xitoy Xalq Respublikasi va Rossiya Federatsiyasiga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan energiya manbaalari va neft mahsulotlari, kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar hamda oziq-ovqat mahsulotlari guruhlaridan iborat ekanligini ko'rishimiz mumkin.

**Farg'ona viloyatining
asosiy hamkor davlatlarga amalga oshirgan eksport hajmi**

Davlat nomi	Mln. AQSh doll.		Ulushi, %		O'rni	
	2018 y.	2019 y.	2018 y.	2019 y.	2018 y.	2019 y.
Rossiya	68,5	78,4	22,7	22,7	1	1
Qirg'iziston	28,5	69,9	9,4	20,2	4	2
Xitoy	68,3	63,7	22,6	18,5	2	3
Turkiya	21,6	35,2	7,2	10,2	5	4
Qozog'iston	56,8	33,8	18,8	9,8	3	5
Polsha	11,4	11,0	3,8	3,2	7	6
Tojikiston	3,6	8,4	1,2	2,4	9	7
Misir	0,3	7,6	0,1	2,2	35	8
Bangladesh	12,6	6,3	4,2	1,8	6	9
Ukraina	2,6	5,8	0,9	1,7	11	10
Afg'oniston	2,8	4,2	0,9	1,2	10	11
Vetnam	2,1	3,9	0,7	1,1	13	12
Koreya Respublikasi	4,0	3,7	1,3	1,1	8	13
Belgiya	1,4	1,4	0,5	0,4	15	14
Marokko	0,4	1,2	0,1	0,4	28	15
Belorys	1,6	1,1	0,5	0,3	14	16

**Farg'ona viloyatining ayrim davlatlar
bilan eksport tarkibi**
(yanvar- iyul)

(mln. AQSh doll.)

	Rossiya Respublikasi		Qirg'iziston Respublikasi	
	2018 y.	2019 y.	2018 y.	2019 y.
Jami eksport	68,5	78,4	28,5	69,9
Oziq-ovqat mahsulotlari	24,0	34,1	21,4	63,4
Kimyoviy mahsulotlar va undan tayyorlangan buyumlar	0,0	0,0	1,3	0,8
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	0,0	1,8	3,2	1,4
Qora va rangli metallar	0,0	0,0	0,0	0,0
Mashina va uskunalar	0,4	0,2	0,1	0,0
Xizmatlar	2,8	3,5	0,0	0,1
Boshqalar	41,3	38,8	2,5	4,2

Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

2019 yilning yanvar-iyul oylarida jami 147,1 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot mahsulotlari 135,3 mln. AQSh dollariga eksport qilindi (o'sish sur'ati 1,3 martaga ko'paygan). Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2019 yilning yanvar-iyul oylarida 57,0 ming tonnadan ko'proq sabzavotlar 41,1 mln. AQSh dollariga yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 24,0 ming tonnaga ko'p miqdorda eksport qilingan.

Shuningdek, 81,0 ming tona meva va rezavorlar 83,6 mln. AQSh dollariga eksport qilingan bo'lib, eksport hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 28,5 ming tonnaga ko'pdir.

Meva-sabzavot mahsulotlarining tarkibi


Shuni aytib o'tish joizki, mamlakatimizda eksport salohiyatini kengaytirish, yangi bozorlarni o'zlashtirish natijasida meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, quritilgan sabzavot va mevalarni eksport qilish hajmi oshib bormoqda. Jumladan, 2019 yilning yanvar-iyul oylarida meva-rezavorlar hamda sabzavotlar eksport hajmi 124,9 mln .AQSh dollariga yetdi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,3 martaga ko'paygan.).


Viloyatimizda yetishtirilgan meva va sabzavot mahsulotlarining asosiy bozorlari eksport geografiyasi

Davlat nomi	2018 yil yanvar-iyul			2019 yil yanvar- iyul		
	Ming. tonna	Ming. AQSh,doll	Ulushi, %	Ming. tonna	Ming. AQSh,doll	Ulushi, %
 Qozog'iston	35,1	50,6	50,0	48,1	30,5	22,5
 Rossiya	29,1	23,7	23,4	51,7	33,4	24,7
 Qirg'iziston	18,4	21,2	21,0	32,3	62,5	46,2
 Tojikiston	0,04	0,03	0,03	2,2	1,9	1,4
 Ukraina	1,0	0,8	1,0	8,1	3,1	2,3
 Xitoy	0,1	0,2	0,1	0,3	1,3	1,0

IMPORT

Joriy yilning yanvar-iyul oylarida import hajmi 442,9 mln. AQSh dollariga (o'sish sur'ati 83,7%) teng bo'ldi. Import tarkibida eng katta ulush mashina va asbob uskunalar (34,5%), energiya manbalari va neft maxsulotlari (10,4 %), oziq-ovqat mahsulotlari (9,6 %), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (11,7%), qora va rangli metall (11,4%), import xizmati (1,4%) hamda boshqalar (21,0 %) hisobiga to'g'ri keldi.


Tovar va xizmatlar importi tarkibi
(mln.AQSh dollari)



Import tarkibi

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %
Import	442,9	83,7	100,0	196,4	61,8	100,0	246,5	116,7	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari	42,4	165,5	9,6	32,2	2,0 m	16,4	10,2	106,3	4,1
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	52,0	134,6	11,7	13,4	128,2	6,8	38,6	136,9	15,6
Energiya manbaalari va neft mahsulotlari	46,2	21,1	10,4	46,1	21,0	23,4	0,1	93,8	0,1
Qora va rangli metallar	50,1	97,1	11,3	27,4	176,8	14,0	22,7	62,7	9,2
Mashina va asbob-uskunalar	152,9	124,6	34,5	6,3	132,0	3,2	146,6	124,3	59,5
Xizmatlar	6,0	172,6	1,4	0,5	3,4 m	0,3	5,5	164,7	2,2
Boshqalar	93,3	137,4	21,1	70,5	135,3	35,9	22,8	144,5	9,3

Import qilingan tovar va xizmatlarning oylar kesimidagi o'sish sur'atlari bo'yicha quyida keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, joriy yilning yanvar-iyul oylari davomida eng past o'sish sur'atlari kuzatilgan.

Tovarlar va xizmatlar importining o'sish sur'atlari dinamikasi
(o'tgan yilga nisbatan, %)


Shuningdek, tovar va xizmatlar importi o'sish sur'atlarining tahliliga asosan, 2019 yilning yanvar-iyul oylarida import qilingan tovar va xizmatlar 2018 yilning mos davriga nisbatan 83,7% ga kamaygan.

**Farg'ona viloyatiga
asosiy hamkor davlatlardan amalga oshirilgan import hajmi**

Davlat nomi	Mln. AQSh dollari.		Ulushi, %		O'rni	
	2018 y.	2019 y.	2018 y.	2019 y.	2018 y.	2019 y.
Xitoy	128,0	135,6	24,2	30,6	2	1
Rossiya	161,1	81,8	30,4	18,5	1	2
Qozog'iston	117,2	69,3	22,2	15,6	3	3
Turkiya	11,2	24,6	2,1	5,5	7	4


Qirg'iziston	23,1	23,5	4,4	5,3	4	5
Germaniya	12,1	17,3	2,3	3,9	5	6
Tojikiston	4,0	14,4	0,8	3,2	11	7
Latviya	6,5	14,0	1,2	3,2	10	8
Koreya	11,2	13,9	2,1	3,1	8	9
Litva	3,6	6,7	0,7	1,5	15	10
Yaponiya	0,2	6,5	0,0	1,5	34	11
Polsha	0,8	4,8	0,2	1,1	23	12
Ukraina	2,3	3,1	0,4	0,7	18	13
Italiya	3,5	2,8	0,7	0,6	16	14
Turkmaniston	8,5	2,5	1,6	0,6	9	15
Hindiston	11,4	2,3	2,2	0,5	6	16
Eron	1,7	2,3	0,3	0,5	19	17
Tayvan	0,4	1,9	0,1	0,4	27	18
Niderlandiya	2,4	1,7	0,5	0,4	17	19
Belorus	1,2	1,7	0,2	0,4	21	20

Xizmatlar importi tarkibi, (%)

2019 yil yanvar-iyul

Xizmatlar importi hajmi 6,0 mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining 1,4% ini tashkil etadi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi turizm xizmatlari, transport xizmatlari, moliya, qurilish xizmatlari va telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlaridan iborat bo'ldi.


2018-2019 yillarda tovarlar va xizmatlar importi dinamikasi
(mln. AQSh dollari)



Shu bilan birga ta'kidlab o'tish kerakki, 2019 yilning o'tgan davri mobaynida viloyatga import qilinayotgan tovar va xizmatlar o'tgan yilning yanvar-iyul davriga nisbatan 86,3 mln.AQSh dollarga kam import qilindi va 442,9 mln.AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyat importida asosiy
hamkor davlatlarning tovar va xizmatlar hajmi
yanvar-iyul 2019 yil
(mln. AQSh dollari)

2019 yil



2019 yilning yanvar-iyul oylarida viloyatimizga 71 dan ortiq xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi hajmi amalga oshirilgan. Shulardan 11 ta eng yirik bo'lgan Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Turkiya, Qozog'iston va Qirg'iziston, Germaniya va Korea Respublikasi, Latviya, Tojikiston Respublikasi, Litva, Yaponiya hamkor davlatlaridan jami import hajmi 407,5 mln. AQSh dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 92,0% ni tashkil qiladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel.:71-230-87-18